



UDK: 372.61(045)

Nafosat ILHOMOVA

Qarshi davlat universiteti doktorantura talabasi

E-Mail: nafosatilhomova@gmail.com

Filologiya fanlari doktori, professor T.Jumayev taqrizi asosida

O'QUVCHILAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya.

Mazkur maqolada maktab o'quvchilari nutqini rivojlantirishda psixolingvistik yondashuvlarning ahamiyati yoritiladi. Yosh psixologiyasi, nutq buzilishlari va ingliz tili darslarida til va tafakkur o'zaro munosabati ilmiy tahlil qilinadi. Psixolingvistik metodlar orqali nutqni korrektsiyalash va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish yo'llari ko'rsatib beriladi. Maqolada o'quvchilar nutqini rivojlantirish jarayonida lingvistik markazlashtirilgan yondashuvning ilmiy-nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Til va nutq faoliyatini uyg'unlashtirishga qaratilgan metodlar, ularning ta'lim jarayonida qo'llanishi hamda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, takomillashtirilgan metodikaning afzalliklari, zamonaviy lingvodidaktika yutuqlari bilan uyg'unligi hamda interfaol usullar asosida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini samarali rivojlantirish yo'llari ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari nutqiy faoliyatni markazlashtirilgan yondashuv asosida rivojlantirish o'quvchilarning ijodiy tafakkurini kengaytirishi, til vositalaridan ongli va maqsadli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: psixolingvistika, yosh psixologiyasi, nutq buzilishi, ingliz tili, kommunikativ ko'nikma

PSYCHOLINGUISTIC APPROACHES TO DEVELOPING STUDENTS' SPEECH

Annotation

This article explores the significance of psycholinguistic approaches in developing school students' speech. It analyzes age psychology, speech disorders, and the interaction between language and thinking in English language classes. The study highlights methods of speech correction and the development of communicative skills through psycholinguistic strategies. The article analyzes the theoretical foundations and practical opportunities of the linguistically centralized approach in the process of developing students' speech. The methods aimed at harmonizing language and speech activities, their application in the educational process, and their role in shaping students' communicative competence are highlighted. In addition, the advantages of the improved methodology, its integration with the achievements of modern linguodidactics, as well as effective ways of developing students' oral and written speech through interactive methods are discussed. The results of the study show that developing speech activity based on a centralized linguistic approach expands students' creative thinking and forms conscious and purposeful skills in the use of linguistic means.

Key words: psycholinguistics, age psychology, speech disorders, English language, communicative skills.

ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ В РАЗВИТИИ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ

Аннотация

В данной статье рассматривается значение психолингвистических подходов в развитии речи школьников. Анализируются возрастная психология, речевые нарушения и взаимодействие языка и мышления на уроках английского языка. Показаны методы коррекции речи и развития коммуникативных навыков с помощью психолингвистики. В статье анализируются теоретические основы и практические возможности лингвистически централизованного подхода в процессе развития речи учащихся. Рассматриваются методы, направленные на гармонизацию языковой и речевой деятельности, их применение в образовательном процессе, а также роль в формировании коммуникативной компетенции школьников. Кроме того, освещаются преимущества усовершенствованной методики, её интеграция с достижениями современной лингводидактики, а также эффективные пути развития устной и письменной речи учащихся на основе интерактивных методов. Результаты исследования показывают, что развитие речевой деятельности на основе централизованного лингвистического подхода способствует расширению творческого мышления учащихся и формированию осознанных и целенаправленных навыков использования языковых средств.

Ключевые слова: психолингвистика, возрастная психология, речевые нарушения, английский язык, коммуникативные навыки.

Kirish. O'quvchilar nutqini rivojlantirish masalasi psixolingvistika doirasida alohida ilmiy tadqiqot yo'nalishi sifatida shakllangan. Ayniqsa, maktab davrida yosh psixologiyasi va nutq shakllanishi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz tili o'qitish jarayonida o'quvchining ichki psixik holati, motivatsiyasi, nutq buzilishlari (dizartriya, disleksiya, logonevroz va b.) va tilni idrok etish mexanizmlari o'rganilishi psixolingvistik yondashuvning asosiy vazifalaridan biridir.

Psixolingvistika, avvalo, tilni o'zlashtirish jarayonida inson psixikasi, xotira, tafakkur va nutqni shakllantiruvchi

ichki mexanizmlarni tadqiq etadi. L.S. Vigotskiy, A.R. Luriya, N.Xomskilar tomonidan ilgari surilgan nazariyalarga ko'ra, bola nutqi faqat lingvistik omillar asosida emas, balki kognitiv va psixik rivojlanish darajasiga bevosita bog'liq. Shu bois ingliz tili darslarida psixolingvistik yondashuvni qo'llash orqali o'quvchilarda to'laqonli kommunikativ nutq ko'nikmalarini shakllantirish mumkin.

Mazkur maqolada maktab o'quvchilari nutqini rivojlantirishda psixolingvistik yondashuvlarning ilmiy-nazariy asoslari, yosh psixologiyasi bilan bog'liq omillar, nutq

buzilishini bartaraf etish metodlari va ingliz tilini o'qitishda ularning amaliy qo'llanilishi tahlil qilinadi.

Psixolingvistika termini ilk bor XX asr o'rtalarida til va psixologiya fanlari integratsiyasi natijasida shakllandi. L.S. Vigotskiy (1934) o'zining "Myshlenie i rech" asarida tafakkur va nutq o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni asoslab, bolaning nutq rivoji uning psixik yetukligi bilan bevosita bog'liq ekanini ta'kidlagan. Uning fikricha, nutq avval ijtimoiy hodisa sifatida yuzaga keladi va asta-sekin ichki nutqqa aylanadi. Amerikalik tilshunos N. Chomsky (1965) esa "Language Acquisition Device" (LAD) konsepsiyasini ilgari surib, inson tug'ma ravishda tilni o'zlashtirish qobiliyatiga ega ekanini ta'kidladi. Chomskyga ko'ra, bola til tizimini atrofdagilarning ta'siri orqali emas, balki ichki kognitiv mexanizmlar orqali egallaydi. A.R. Luriya (1974) psixolingvistik tadqiqotlarda neyropsixologik yondashuvni ishlab chiqib, nutq buzilishlarini (afaziya, dizartriya) miya faoliyati bilan bog'liq holda tahlil qilgan. Uning ishlari psixolingvistikaning klinik yo'nalishiga asos solgan.

Tadqiqot metodologiya. Ushbu tadqiqotning metodologik asoslari psixolingvistika va yosh psixologiyasi nazariyalariga tayangan holda shakllantirildi. Tadqiqot obyekti sifatida ingliz tilini o'rganayotgan maktab o'quvchilari, predmet sifatida esa ularning nutqini rivojlantirish jarayonida psixolingvistik yondashuvlarning ta'siri belgilandi.

Tadqiqotning maqsadi – maktab yoshidagi o'quvchilarda nutq rivojlanishi bilan bog'liq psixik omillarni aniqlash, nutq buzilishlari omillarini ilmiy tahlil qilish va ingliz tili ta'limida psixolingvistik yondashuvlarning nazariy asoslarini yoritishdan iborat. Nazariy-tahliliy metod – psixolingvistika, kognitiv psixologiya va til o'qitish metodikasi bo'yicha ilmiy manbalarni o'rganish; Komparativ metod – nutq rivojlanish jarayonini ona tili va ingliz tili kontekstida qiyosiy tahlil qilish; Deskriptiv metod – yoshga xos psixologik-ko'nikma va nutqiy faoliyatni tavsiflash; Model yaratish metodi – ingliz tili darslarida psixolingvistik yondashuvga asoslangan nazariy modelni shakllantirish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda maktab o'quvchilarida ingliz tilidagi nutqni rivojlantirish jarayoniga psixolingvistik mexanizmlar – ichki nutq, xotira, tafakkur va nutq buzilishlarini korreksiyalash omillari bir butun tizim sifatida yondashilgan. Tadqiqot nazariy asos sifatida L.S. Vigotskiyning nutq va tafakkur dialektikasi haqidagi g'oyalari, N. Chomskiyning til qobiliyatining tug'maligi haqidagi nazariyasi hamda J. Piagetning kognitiv rivojlanish bosqichlariga oid qarashlariga tayandi.

Tahlil va natijalar: Psixolingvistik yondashuvga ko'ra, ichki nutq — bu bolaning mantiqiy fikrlash va til orqali o'z-o'zini anglash jarayonidir. L.S. Vigotskiy ta'kidlaganidek, nutqning ichki shakli orqali o'quvchi o'z fikrini tashqi nutqqa aylantirish mexanizmini o'zlashtiradi. Ingliz tilini o'rganish jarayonida ichki nutq tarjima, semantik assotsiatsiya va sintaktik konstruktsiyalarni shakllantirishda faol ishtirok etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ichki nutq rivojlangan o'quvchilar chet tilida mustaqil fikr bildirishda yuqori natijalarga erishadilar.

Nutq buzilishlari — disleksiya, dizartriya, logonevroz — psixolingvistik nuqtai nazardan faqat fonetik nuqson emas, balki neyropsixologik jarayonlar izdan chiqishini anglatadi. Disleksiyasi mavjud o'quvchilar ingliz tilida grafema-fonema bog'lanishini qiyin qabul qiladi, bu esa so'z boyligini

o'zlashtirishni sekinlashtiradi. Logonevrozga ega o'quvchilar esa psixologik bosim tufayli og'zaki nutqda sustkashlik va pauzalar bilan gapirishadi. Shunday qilib, psixolingvistik yondashuv ta'lim jarayonida individual nutq strategiyalarini ishlab chiqishni talab qiladi. Ingliz tili o'rganishda motivatsiya va psixik barqarorlik hal qiluvchi ahamiyatga ega. S. Krashen tomonidan ishlab chiqilgan "Affective Filter Hypothesis" nazariyasiga ko'ra, yuqori psixologik bosim (qo'rquv, uyat, tashvish) kommunikativ nutqni bloklaydi. Aksincha, qulay psixologik muhitda o'quvchilar ichki nutqni faol ishlatib, erkin muloqotga kirishadi. Shu bois ingliz tili darslarida psixologik qo'llab-quvvatlovchi metodlardan foydalanish samaradorlikni oshiradi.

Psixolingvistik yondashuv asosidagi ta'lim modeli o'quvchining idrok, xotira, tafakkur va nutq ko'nikmalarini bir butun tizim sifatida rivojlantiradi. Bu model quyidagilarni ta'minlaydi: Semantik tushunishning chuqurlashuvi; Grammatik konstruktsiyalarni intuitiv o'zlashtirish;

Tahlil natijalariga ko'ra, o'quvchilarning ingliz tilidagi nutqini rivojlantirishda psixolingvistik yondashuv asosiy o'rin tutadi. Nutq faqat lingvistik kompetensiya mahsuli emas, balki psixik jarayonlarning murakkab integratsiyasidir. Shunday ekan, nutqni rivojlantirish strategiyasi psixologik yosh xususiyatlari, ichki motivatsiya va kognitiv mexanizmlar bilan uyg'un holda ishlab chiqilishi lozim.

Xulosa va takliflar. O'quvchilar nutqini o'stirishda lingvistik tamoyillarning metodologik asoslari, avvalo, til va tafakkur integratsiyasiga tayanadi. Strukturaviy tilshunoslik, funksional pragmatika va psixolingvistika nuqtai nazaridan qaralganda, nutq faqat grammatik bilim bilan belgilanmaydi, balki kommunikativ ehtiyoj, semantik ong va diskurs kompetensiyasi orqali shakllanadi. Shu nuqtada, lingvistik tamoyillar – ya'ni fonetik, leksik, sintaktik hamda pragmatik birliklarning o'zaro uyg'unligi – metodologik yondashuvning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qoraladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quvchi nutqini takomillashtirishda an'anaviy reproduktiv usullar yetarli emas. Interaktiv metodlar, diskursiv yondashuv, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish kabi lingvometodik yo'nalishlar ko'proq samara beradi. Xuddi shu asosda, metodologiya faqat nazariy platformaga tayanib qolmasdan, nutqiy faoliyatni real sharoitda rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Lingvistik tamoyillar, xususan, kontekstual yondashuv, semantik motivatsiya va funksional nutq modellarini o'quv jarayoniga integratsiyalash zarurati mavjud.

Bundan tashqari, pragmatik yondashuv asosida nutqni baholash, o'quvchilarning mazmunni yaratish va uzatish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, lingvistik tamoyillarga asoslangan metodologiya nutqni shakllantirish va o'stirishda tizimli, bosqichma-bosqich va kommunikativ maqsadga yo'naltirilgan yondashuvni talab qiladi. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar nutqini o'stirish va takomillashtirishda lingvistik tamoyillarga asoslangan metodologiya muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Nutqiy rivojlanish jarayoni nafaqat til elementlarini yod olish, balki ma'no yaratish, fikrni shakllantirish va kommunikativ vazifani bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Til – bu fikr ifodasi vositasi, nutq esa uning funksional ko'rinishi ekanligini inobatga olish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Chomsky, N. (1965). Aspects of the Theory of Syntax. MIT Press.
2. Krashen, S. D. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press.
3. Luria, A. R. (1973). Language and Cognition. Wiley.
4. Vygotsky, L. S. (1986). Thought and Language. MIT Press.
5. Ellis, R. (1994). The Study of Second Language Acquisition. Oxford University Press.

-
6. Piaget, J. (1964). Development and Learning. Journal of Research in Science Teaching.11. Zimnyaya, I.A. Psikhologiya obucheniya inostrannym yazykam v shkole. Moskva: Prosveshchenie, 2001. – p. 89–102.
 7. Chelli, S. The Competency-based Approach in Algeria: A Necessity in the Era of Globalization. International Journal of Education, 2014, Vol. 2(3), p. 41–57.